ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

“STOIK FALSAFASINI TARJIMADA AKS ETTIRISH: MARK AVRELIYNING “MEDITATSIYA” ASARI MISOLIDA

Axmedova M.T

ADCHTI, o‘qituvchi Nozimova Maftuna, ADCHTI,talaba

Abstract: This article examines the translation of Marcus Aurelius’ Meditations from English into Uzbek, focusing on the philosophical, linguistic, and cultural challenges that arise during the process. The study aims to identify how Stoic concepts such as virtue, reason, and nature can be effectively rendered in the Uzbek language while maintaining the reflective tone of the original text. Using a comparative analysis of selected passages and applying translation theories such as dynamic equivalence and domestication versus foreignization, the paper explores strategies for achieving balance between accuracy and naturalness. The findings reveal that philosophical translation requires not only linguistic skill but also deep cultural sensitivity to convey the essence of Stoicism in a way that resonates with modern Uzbek readers.

Key words: philosopher emperor, stoicism, meditation, logos, localization, foreignization, dynamic equivalence.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mark Avreliyning “Meditatsiya” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni tahlil qilinadi.Tadqiqot davomida tarjima jarayonida uchraydigan falsafiy, lingvistik va madaniy qiyinchiliklar yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi stoitsizmga oid “fazilat”, “aql”, “tabiat” kabi tushunchalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri va mazmunan chuqur ifodalash yo‘llarini aniqlash hamda asarning o‘ziga xos mulohaza, ohangini saqlab qolishdir. Tanlangan parchalarning tahlili va dinamik ekvivalentlik hamda “mahalliylashtirish – begonalashtirish”(domestication-foreignization) nazariyalari asosida olib borilgan tahlil falsafiy matnlarni tarjima qilishda aniqlik bilan tabiiylik o‘rtasida muvozanat saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, falsafiy tarjima nafaqat lingvistik mahoratni, balki madaniy sezgirlikni ham talab etadi.Shu orqali stoitsizm g‘oyalarini zamonaviy o‘zbek o‘quvchisiga mazmunan yaqin shaklda yetkazish mumkinligi isbotlanadi.

Kalit so’zlar: faylasuf imperator, stoitizm, meditatsiya, logos, lokalizasiya, foreignizatsiya, dinamik ekvivalentlik.

Ushbu mavzuga qo‘l urar ekanmiz, tarjima transformatsiyalari haqida fikr yuritishdan avval asar mullifi, uning yashagan muhiti va uning jamiyatda tutgan mavqei haqida fikr yuritib, uning hayotiga nazar tashlasak mantiqqa to‘g‘ri keladi deb hisoblaymiz.

Asar muallifi Mark Avreliy (lotincha *Marcus Aurelius Antoninus*) 121 yilda Rimda ispan millatiga mansub senatorlar oilasida dunyoga kelgan. U yuqori tabaqaga tegishli oilaning farzandi sifatida o‘sha davrning yetuk tarbiyasini olgan va kelajakda “faylasuf imperator” degan maqom bilan atalgan. Uning falsafiy dunyo qrashlari so‘nggi “stoitizm” yo‘nalishiga borib taqaladi. “Stoitizm” — qadimgi Yunonistonda Zenon Kitionlik tomonidan asos solingan falsafiy ta’limot bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi insonning aql va tabiatga muvofiq yashashidir. Stoiklar haqiqiy baxt tashqi omillarda emas, balki ichki xotirjamlik va axloqiy barkamollikda deb bilganlar. Inson o‘z nazoratidagi fikr va xatti-harakatlarga e’tibor qaratishi, boshqarib bo‘lmaydigan hodisalarga esa xotirjam munosabatda bo‘lishi kerak. Stoitsizm sabr-toqat, mas’uliyat va o‘zini boshqarish tamoyillarini targ‘ib qilgan. Mark Avreliy o‘z falsafasida axloq qoidalariga ko‘proq e‘tibor qaratadi, falsafaning qolgan bo‘limlari esa muhim fanlarni o‘rganish uchun xizmat qiluvchi “propedevtik” maqsadlarga xizmat qiladi. Mark Avreliy stoitizmning avvalgi qarashlaridan farqli o‘laroq insonda uch ibtidoni aniqlagan: qalb, tana va aql-idrokni dastlabki ikkisiga qo‘shgan. Uning fikricha ongni butun tabiat bilan uyg'unlashtirilishi va shu tufayli beparvolikka erishilish kerak. Baxt umumbashariy aqlga muvofiq tuzilgan tushunchadir.

Markus Avrelius ulg’aygan muhit, ya’ni Rim Imperiyasi davrida jamiyatning yuqori pog’onasida o‘rin olganlarning farzandlari ta’limiga alohida e’tibor qaratilgan va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘sha davrning yetuk faylasuf va olimlari

tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Mark Avreliy “Meditatsiya” kitobida har bir o‘qituvchisiga sharx berarkan, ularning har tomondan yetuk bo‘lishgani va yosh Imperatorga nafaqat moddiy ilm, balki ma’naviy ilm sirlaridan ham ta’lim berganini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Yana shunisi e’tiborga molik-ki, o‘sha davrlarda yuqori tabaqadagilar farzandlari uchun adabiyotdan ta’lim olish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bunga bir necha sabablarni keltirishimiz mumkin: birinchidan, adabiyot va falsafa o‘zlikni anglashga asoslangan fan va bilimlarning asosiy bosqichi hisoblanadi. Ta’limning ilk saboqlari aynan adabiyot bilan bog‘langan, bo‘lajak davlat boshqaruvchilari adolatli qarorlar chiqarishi va kelajakka boshqa tomondan boqishga boshqa sinf vakillariga qaraganda ancha moyil bo‘lishadi. Misol uchun, buyuk Rim shoiri Publius Vergilius Maronning(Vergil) epik asari bo‘lgan va o‘sha paytda milliy o‘zlik va qadriyatlarni o‘z ichiga olgan “Aeneida” asarini o’rganish, qo‘polroq qilib aytganda yosh avlod ongiga sindirish majburiy hisoblangan. Bunga sabab bu asar Rimning kelib chiqishini ulug’lash, Rimni Troya qahramonlari bilan bog‘lash, shuningdek, Avgust imperatorining hukmronligini qonuniylashtirish va Rimni dunyoni boshqaruvchi hukmron davlat ekanligini tasvirlash kabi g‘oyaviy ta’limotni yosh avlodga singdirish kabi vazifalarni o’z ichiga olgan. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lajak boshqaruvchilarni vatanparvarlik va davlatni yuksaltirishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirgan.“Ammo adabiyot uning kelajakdagi yutuqlari uchun tayyorgarlik vazifasini o‘taydi halos”, deya izoh beradi Gregory Hays Mark Avreliyga bag’ishlangan kitobida.

Mark Avreliy, barchamizga ma’lum-ki, “Meditatsiya” asari bilan falsafaning rivojlanishi va yanada kengroq yoritilishiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning bu shox asari aslida, o‘quvchilarga ma’lum-ki, kitob bo‘lib chiqarishi rejalashtirilmagan, shuningdek, Mark Avreliyning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va yaqinlari haqidagi fikrlarini bir joyga jamlash uchun hayoti oxirlarida qo‘l urilgan bir kundalikdir. Bu asar asrlar davomida yuksak falsafiy manbaa va qo‘l-yozma sifatida foydalanilgan va ba’zi davlatlarda darslik sifatida tadbiq etilgan.

Bu qo‘l yozmaning aslida nomi bo‘lmagan, yuqorida aytib o‘tganimizdek u shunchaki o‘z kuzatishlarini qog‘ozga tushirib borgan. Keyinchalik unga asarning mazmunidan kelib chiqib, yunoncha nom berilgan “Τὰ εἰς ἑαυτόν (Ta eis heauton)”, ya’ni so‘zma-so‘z tarjimada u “O‘zinga nazar” deb nomlanadi.

Asar ingliz tiliga bir necha marta tarjima qilingan uning birinchi tarjimasi 1634 yili Meric Casauban tomonidan amalga oshirilib, “Meditations concerning himself” deb nomlangan. Shundan buyon bir necha marta tarjima qilinib, oxirgisi 2011 yili Robin Hard tomonidan amalga oshirilib, “Meditation” deb atala boshlangan. “Meditation” hozirgi zamon tushunchasidagi – “meditatsiya” emas, qadimiy ingliz tilida “fikrlar” va “o‘ylar” degan ma’noni bergan.

Bu asarni o‘rganish jarayonida shu narsalar ravshan bo‘lib boradi-ki, Mark Avreliy foydalangan til uslubi va ma’lumotlarning favqulotda izchil, ixchamlangan ma’nolari hozirgi tilshunoslik, qolaversa tarjima sohasi uchun ham ulkan yutuqdir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek asar aslida yunon tilida yozilgan bo‘lib uni inglizcha tarjimasidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjima jarayonida biz Yu. Naydaning dinamik ekvivalentligiga e’tibor qaratdik. Naydaning “Dinamik ekvivalentlik” tushunchasi asliyatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima emas, balkim tarjima tilida o‘quvchi asliyat matnidan kuchli ta’sirga ega bo‘lishi tushuniladi. Asliyat matndan o‘z ona tilida o‘quvchi qanchalik kuchli ta’sirlansa, tarjima matnida xuddi shu ta’sirni boshqa til birliklari bilan berishi dinamik ekvivalentlikning asosiy mazmunidir.

Dinamik ekvivalentlikda asosiy e’tibor tarjimada so‘zlar va grammatik birliklarning aniq tarjimasida emas, matndagi axborotning ma’no funktsiyasiga qaratiladi.

Tarjimon dinamik ekvivalentlikka iboralarni qayta qurish, gapdagi so‘z tartiblarini o‘zgartirish, tarjima tilidagi tabiiy iboralarni tanlab, asliyat tilidagi realiyalarni ba’zan izoh bilan aniqrog‘iga almashtirish orqali erishadi.

Dinamik ekvivalentlikka formal ekvivalentlik qiyoslanadi:

- Formal ekvivalentlik, asliyat struktura va so‘zlariga yaqin bo‘ladi.
- Dinamik ekvivalentlikda, matnni o‘z tilida tabiiy tushunish muhimdir.

Bu holatda tarjima sifati tabiiylik va kommunikativ maqsadga muvofiq bo‘ladi. U asliyat tilidagi ishontirish, axborot berish, ilhomlantirish kabi diskurslarni maromiga yetkaziladi.

Masalan, agar qiz bola uchun “white as snow” – iborasini tarjima qilishda “qordek oppoq” deb o‘zbekchaga tarjima qilish o‘zbek auditoriyasi uchun unchalik ma’qul emas, chunki “qor” issiqni sevuvchi o‘zbek xalqi uchun sovuqlik ifodasi salbiy tushunchasini beradi. Shuning uchun biz “sutdek oq” yoki “sutga chayilgandek oq” deb tarjima qilamiz.

“**Meditatsiya**” asarining turli tillarga tarjima qilinishi jarayonida tarjimonlar muhim tanlov qarshisida qoladilar: matnni o‘quvchiga yaqinlashtirish (lokalizatsiya) yoki muallifga xos bo‘lgan madaniy va falsafiy begonalikni saqlab qolish (foreignizatsiya). Mark Avreliyning matni aynan shu ikki yondashuv o‘rtasidagi nozik muvozanatni talab qiladigan asarlardan biridir.

1. **“logos” tushunchasi** bilan bog‘liq:

English (Gregory Hays):

“To live according to nature is to live according to reason.”

O‘zbekcha lokalizatsiyalashgan tarjima:

“Tabiatga muvofiq yashash — aql-idrok asosida yashash demakdir.”

Bu yerda asl yunoncha *logos* tushunchasi ingliz tilida “reason” orqali izohlanadi. Bu — **lokalizatsiya elementi**, chunki zamonaviy o‘quvchi uchun “logos”ni izohsiz qoldirish matnni tushunishni qiyinlashtiradi. O‘zbekcha tarjimada esa “aql-idrok” birikmasi tanlanib, tushuncha yanada ma’naviy va axloqiy ohang bilan boyitiladi. Biroq bu jarayonda *logos*ning kosmik va metafizik qamrovi qisman torayadi, bu esa lokalizatsiyaning muqarrar oqibatidir.

2. **stoik befarqlik (apatheia)** tushunchasi:

English:

“Accept whatever comes to you woven in the pattern of your destiny.”

O‘zbekcha foreignizatsiyaga yaqin tarjima:

“Taqdiring naqshiga to‘qilgan har bir hodisani qabul qil.”

Bu misolda o‘zbek tarjimon metaforik tuzilmani saqlab qolgan, ya’ni “woven in the pattern” iborasi “naqshiga to‘qilgan” tarzida berilgan. Bu **foreignizatsiya** namunasi bo‘lib, o‘quvchini begona tasvir bilan yuzlashtiradi, ammo muallifning poetik-falsafiy ohangini yo‘qotmaydi. Agar bu jumla to‘liq lokalizatsiya qilinsa, u “hayotda ro‘y beradigan voqealarni tabiiy qabul qil” kabi soddalashtirilgan shaklga kelib qolishi mumkin edi, bu esa matnning estetik va falsafiy yukini kamaytirardi.

3. **ijtimoiy burch va Rim tafakkuri** bilan bog‘liq:

English:

“You were born to work together with others.”

O‘zbekcha lokalizatsiya qilingan tarjima:

“Inson jamiyat bilan hamnafas yashash uchun yaratilgan.”

Bu yerda Rim davlatchilik tafakkuriga xos bo‘lgan kollektiv mas’uliyat tushunchasi o‘zbek madaniyatidagi jamoaviylik g‘oyasiga yaqinlashtiriladi. Bu **madaniy lokalizatsiya** orqali o‘quvchiga begona bo‘lmagan qadriyatlar orqali mazmun yetkaziladi. Biroq inglizcha variantdagi “born to work” iborasidagi faol xizmat va burch ohangi o‘zbekcha tarjimada biroz yumshatilganini ko‘rish mumkin.

4. **o‘z-o‘ziga murojaat shakli**:

English:

“Begin the morning by saying to yourself…”

O‘zbekcha foreignizatsiyaga moyil tarjima:

“Tongni o‘zingga shunday deya boshlagin…”

Mark Avreliy asarining asosiy xususiyatlaridan biri — uning o‘ziga murojaat shaklida yozilganidir. Bu uslubni saqlab qolish **foreignizatsiyaning muhim jihati** hisoblanadi. Agar bu jumla “ertalab shunday o‘ylash kerak” tarzida umumlashtirilsa, kundalik (diary) janri va shaxsiy ichki dialog yo‘qolib ketadi.

Mazkur maqolada Mark Avreliyning “Meditatsiya” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan falsafiy, lingvistik va madaniy muammolar tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, stoitsizmga oid tushunchalarni tarjima qilish oddiy so‘z almashtirish emas, balki muallif fikrining ichki mohiyatini saqlab qolishni talab qiladi. “Fazilat”, “aql”, “tabiat” kabi kategoriyalar o‘zbek tilida nafaqat lug‘aviy, balki madaniy jihatdan ham mos tarzda ifodalanishi lozim.

Tahlil natijalari tarjimonda chuqur falsafiy bilim, til sezgirligi va madaniyatlararo tafakkur bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Dinamik ekvivalentlik hamda mahalliylashtirish va begonalashtirish usullarini

uyg‘un qo‘llash orqali asarning asl ruhini saqlab qolish mumkinligi isbotlandi. Xulosa qilib aytganda, Mark Avreliyning “Meditatsiya” asarini o‘zbek tiliga sifatli tarjima qilish stoik falsafani zamonaviy o‘zbek o‘quvchisiga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi va milliy tarjimashunoslik rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Aurelius, M. (2002). *Meditations* (G. Hays, Trans.). New York: Modern Library.
2. Aurelius, M. (2011). *Meditations* (R. Hard, Trans.). Oxford: Oxford University Press.
3. Aurelius, M. (1634). *Meditations concerning himselfe* (M. Casaubon, Trans.). London.
4. Long, A. A. (2002). *Epictetus: A Stoic and Socratic Guide to Life*. Oxford: Oxford University Press.
5. Sellars, J. (2006). *Stoicism*. Berkeley: University of California Press.
6. Hadot, P. (1998). *The Inner Citadel: The Meditations of Marcus Aurelius*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Zeller, E. (1962). *The Stoics, Epicureans and Sceptics*. New York: Russell & Russell.
8. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill.
9. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E.J. Brill.
10. Venuti, L. (1995). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
11. Venuti, L. (1998). *The Scandals of Translation: Towards an Ethics of Difference*. London: Routledge.
12. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
13. Bassnett, S. (2014). *Translation Studies* (4th ed.). London: Routledge.
14. Lefevere, A. (1992). *Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame*. London: Routledge.
15. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (3rd ed.). London: Routledge.
16. Toury, G. (1995). *Descriptive Translation Studies and Beyond*. Amsterdam: John Benjamins.
17. Holmes, J. S. (1988). *Translated! Papers on Literary Translation and Translation Studies*. Amsterdam: Rodopi.
18. Virgil. (2006). *The Aeneid* (R. Fagles, Trans.). New York: Penguin Classics.
19. Hayes, G. (2002). *Introduction* to Marcus Aurelius, *Meditations*. New York: Modern Library.
20. Sharipov, O. (2019). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.